

VIZANTIYADA MAKEDONLAR SULOLASI VAKILLARINING MA'RIFATGA MUNOSABATI

Mardonova Mehribon Shavkattillayevna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Vizantiyashunoslikda Vizantiya tarixida ikkita renessans davri bo'lgan degan fikrlar ilgari suriladi. Bulardan birinchisi davlatdagi hukmron sulola nomi bilan Makedonlar Renessansi yoki Birinchi Vizantiya Uyg'onishi, ikkinchisi Paleologlar Renessansi yoki Ikkinchi Vizantiya Uyg'onishidir. Albatta bu renessanslarni keyiroq Italiyada kuzatilgan Yevropa Uyg'onishi bilan solishtirib bo'lmaydi, lekin shu ikki sulola hukmronligi davrida Vizantiya madaniy jihatdan yuksaldi, hukmdorlar madaniyat va ma'rifat rivojiga homiylik qildi. Maqolada makedon sulolasi hukmdorlarining ma'rifatparvarlik, ya'ni ta'lim sohasidagi faoliyati tarixi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Vizantiya, ta'lim, vasilevs, oliy maktab, makedonlar, renessans.

Kirish. Vizantiya davlatchiligi tarixida imperiyani 867-1056-yillarda idora etgan makedon sulolasining o'rni katta hisoblanadi. Garchi sulolaning asoschisi bo'lgan Vasiliy I Makedonyanin (867-886) hukmdor sulolalarga mansub bo'lmasada, lekin o'zining uddaburonligi, uzoqni ko'ra olishi tufayli nafaqat vasilevs hokimiyatining legitim egasiga aylandi, balki salkam ikki asar davomida hukmronlik qilgan sulolani boshlab berdi. Uning yoshlikda savodsizligi o'rnini ota tarbiyasi qoplaganligi aytiladi [1, 6]. Garchi o'zi savod ko'rmagan bo'lsada, bu uning siyosatiga ta'sir ko'rsatmadi, aksincha farzandlarini imperiyaning eng ilg'or ziyolilar tarbiyalashga ko'rsatma berdi. Balki shuning ta'siridir uning vorisi bo'lgan Lev "Donishmand" yoki "Faylasuf" laqabi bilan tanilgan bo'lib, favqulotda jozibaga, yorqin akademik qobiliyatga va chuqur bilimga ega hukmdor bo'lgan, ayniqsa uning so'nggi xislatiga Vizantiyaning o'tmishdagi hech bir hukmdor tenglasha olmagan [2, 226]. Makedonlar sulolasi Paleologlar bilan birga Vizantiyani eng uzoq idora etgan ikki suloladan biri bo'ldi. Bunga muayyan darajada sulola hukmdorlarining bir tarafdin kuchli hokimiyat egasi bo'lganligi, ikkinchi tarafdin madaniyat va ma'rifat xomiysi bo'lganligi sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas. Har holda aynan ikki sulola nomi bilan Vizantiya tarixidagi Uyg'onish davri bog'lanadi.

Asosiy qismi. Makedon sulolasi hukmdorlari ta'lim rivojiga munosib hissa qo'shishdi. Bu sulolaning asoschisi hisoblangan Vasiliy I (867-886) garchi o'zi savod ko'rmagan

bo'lishiga qaramasdan, fanlarga, ma'rifatga katta e'tibor qaratdi. O'z davrining eng ziyoli kishilaridan hisoblangan Konstantinpol patriarxi Fotiyni (820-896) o'g'illari – Konstantin, Lev, Aleksandr va Stefanga o'qituvchi qilib tayinladi [3, 50]. Uning vorisi bo'lgan Lev VI (886-912) otasi kabi jamiyatda ilmning o'rni chuqur tushunib yeta olgan hukmdorlardan biri bo'ldi. Fotiyning ustozligi ostida grammatika, ritorika, falsafa, ilohiyot va matematika fanlari bo'yicha keng tushunchalarni egalladi. U asosan antik adabiyotga alohida ixlos qo'ydi. Shuning uchun ham Lev VI olim va yozuvchi sifatida tarixda mashhur bo'lgan. Bir qator dunyoviy va diniy mazmundagi asarlar muallifi bo'lgan Lev VI har tomonlama bilimdonligi sabab “donishmand” degan laqabni olgan [4, 371]. U otasi tomonidan boshlangan Rim huquqlarini kodifikatsiya qilish ishlarini davom ettirdi. Natijasida otasi nomiga nisbat beruvchi “Vasilik” deb ataluvchi 60 ta kitobdan iborat qonunlar majmui tuzildi. Bunda u qonunlarni birinchi marta tizimlashtirdi, bir kitobda aks etgan me'yor boshqa kitobda aks etmaydigan bo'ldi. Ikkinchidan, bu paytga kelib lotin tili Konstantinopolda o'lik tilga aylanganligi uchun ham qonunchilik me'yorlarining katta qismi yunonchada berildi. Shunday qilib Lev VI davriga kelganda imperator Yustinian (527-565) davridagi huquqiy normalar yangilana boshlandi [2, 227].

Makedonlar sulolasining yana bir taniqli va mashhur vakillaridan biri Konstantin VII Bagryanorodniy (913(945)-959) taxtga chiqqan vaqtida hali juda yosh bo'lganligi uchun avval patriarx Nikolay Mistik boshchiligidagi regent kengashi tomonidan, so'ngra Roman I Lakapin (bu imperator ham oddiy dehqon oilasidan chiqqan edi) hamimperatorligida davlatni boshqargan vaqtida ta'lim tizimiga juda kam e'tibor qaratdi. U Roman I tomonidan davlat boshqaruvidan mahrum etilgach, asosiy vaqtini turli fanlarga oid kitoblarni o'qishga va o'zlashtirishga bag'ishlab, uning sa'y-harakatlari va bevosita ishtirokida turli fan sohalariga oid qomusiy harakterdagi asarlar yaratildi. Ana shunday asarlardan biri bo'lgan, muallifi noma'lum “Geoponika” da anonim muallif Konstantin VII ga ta'limga, falsafiy va ritorik bilimlarni qayta tiklashga ko'maklashganligi uchun chuqur minnatdorchilik bildiradi. Feofanning yozishicha, Konstantin davrida arifmetika, musiqa, geometriya, stereometriya va falsafani o'qitish qaytadan yo'lga qo'yilgan. Uning fikricha, u o'z atrofiga ilg'or va zamonasining taniqli olimlarini to'plab, ularga professor unvonini bergan hamda xohlovchilarga ta'lim berishga buyruq berdi.

Regentlari tomonidan davlat idorasiga ruxsat berilmaganligidan Konstantin VII unumli foydalanadi, u saroydagi boy kutubxonani erkin tasarruf etardi, undan tashqari kutubxonani boyitish uchun qo'lyozmalarni sotib olishni yo'lga qo'ygandi [5, 19].

Konstantin VII ning vorislari davrida u boshlab bergan ishlar uning vorislari tomonidan davom ettirilmadi. Vasiliy II (976-1025) hukmronligi davrida universitet faoliyat ko'rsatganligi to'g'risida hech qanday ma'lumotga ega emasmiz [6, 355]. Xususan o'sha davrdagi imperatorlarning ta'limiga, fanga e'tiborlari haqida so'z yuritgan Mixail Psell imperatorlar Konstantin VIII (1025-1028), Roman III Argir (1028-1034), Mixail IV Paflagonlarni (1034-1041) davrida ilm-fanga, ta'limga ahamiyat tushib ketganligini, bu monarxlarning birinchi galdagi vazifalariga davlat chegaralari dahlsizligini ta'minlash aylanib qolganligini chuqur o'kinch bilan yozib qoldirgan. Mixail Psell o'zining "Xronografiya"sining boshqa joyida garchi Vasiliy II ilmiy faoliyatga uzoq bo'lgan bo'lsa ham, "uning davrida ko'plab faylasuf va ritoriklar etishib chiqqan" ligini qayd qilib o'tadi [4, 373].

Lekin shunday bo'lsada, hukmdorlar o'z farzandlari ta'limiga jiddiy yondashishda davom etgan. Jumladan, makedonlarning so'nggi erkak vakili bo'lgan Konstantin VIIIning qizlari Yevdokiya, Zoya va Feodoralar ta'limi uchun maxsus taklif qilingan o'qituvchilar saroyda faoliyat ko'rsatgan [5, 19].

Lekin oliy maktab tizimidagi taraqqiyot XI asrlarning o'rtalariga kelib yana kuzatila boshlaydi. Vasiliy II dan tortib to imperator Konstantin IX Monomaxgacha (1042-1055) imperiyada ilmiy bilimlar rivojlanishi to'laligicha to'xtab qolgan emas.

Konstantin IX Monomax (u to'g'ridan-to'g'ri makedonlar sulolasidan emas, balki Konstantin VIIIning (1025-1028) qizi Zoyaga (1042-yilda imperatritsa bo'lgan) uylangan va shuning ortidan hukmdorlikka kelgan) davriga kelib ilmiy faoliyat yangi tiklanish bosqichiga ko'tarildi. U o'z saroyiga zamonasining eng ilg'or va bilimdon kishilaridan hisoblangan Konstantin Lixud, Mixail Psell, Ioann Mavropod, Ioann Ksefilin kabilarni to'pladiki, ular imperatorga davlat boshqaruvi masalalarida maslahatlar berib turishgan. Ularning harakatlari bilan Konstantinopolda huquq va falsafa bo'limlaridan iborat oliy o'quv muassasasi tashkil etildi. Imperatorning shaxsan o'zi bu yerlardagi darslarga ishtirok etib, professorlardan ma'ruzalar tinglagan.

Konstantin Monomax hukmronligi davrida Konstantinopol oliy maktabining ikkita fakulteti bo'lgan: huquqshunoslik va falsafa. Konstantin IX ning maxsus buyrug'i bilan tashkil etilgan huquqshunoslik fakulteti Mangandagi Ayo Georgiy monastirida joylashgan edi. Bu fakultetga nomofilak (so'zma-so'z "qonun qo'riqlovchisi" degani) boshchilik qilib, u o'z mutaxassisligi – huquqdan tashqari lotin tilini bilishi lozim edi; ayni vaqtda u huquq bo'yicha kutubxonaning faoliyatini ham tashkillashtirishi zarur bo'lgan. Fakultetda dars mashg'uloti uzluksiz bo'lib, bayram va yakshanba kunlardan tashqari har kuni dars mashg'ulotlari olib borilgan. Nomofilak sanklitga hisob bergan va undan ipak kiyimlarni, oziq-ovqatlarni va pasxa sovg'alarini hisobga olmaganda

to'rt litr oltin hajmida maosh olgan. Rasman bu lavozim egasi o'z mansabidan olinmaydigan lavozim hisoblansada, Konstantin IX o'z vazifasiga noloyiq bo'lgan nomofilanlarni almashtirish mumkinligini ta'kidlab o'tgan [6, 355].

Xulosa. Makedonlar sal kam ikki yuz yillik hukmronligi davrida ayrim sulola vakillarining ma'rifatparvarlik faoliyati, ziyoli kishilarga ko'rsatgan xomiyligi natijasida bu davr Vizantiya tarixining Birinchi Uyg'onish davri sifatida tarixga kirdi. Lekin sulolaning hamma vakillari ham bu jarayonga bevosita dahldor emas.

Sulola hukmronligi davrida oldingi davrlardan mavjud bo'lib kelgan maktab ta'limi davom etgan, bu "tizimga" ahamiyatli bo'lgan yangilik kiritilgan emas. Shunday bo'lsada, imperiyadagi eng ziyoli kishilarni qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatiga ko'maklashish ortidan Konstantinpol mintaqaning ma'rifiy markazlaridan biriga aylana oldi.

Makedon sulolasi vakillari ichida ijodkorlarining faoliyati bo'lsa umumdavlat madaniy yuksalishiga xizmat qildi. Makedonlar sulolasi davrida ta'lim ommaviy, ya'ni barcha ijtimoiy toifa uchunligi saqlanib qoldi. Lekin oldingi davrlarda bo'lgani singari bu ommaviylik majburiylik ko'rinishi kasb etmagan. Buning natijasida aholining savodlilik darajasi juda pastligicha qolishda davom etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Величко А.М. История византийских императоров. От Василия I Македонянина до Михаила VI Стратиотика. – М.: Вече, 2015.
2. Норвич Д. История Византии. Пер. с англ. Н.М. Забилоцкого. – М.: АСТ: АСТ МОСКВА, 2010.
3. Каждан А.П. Византийская культура (X – XII вв.). – М., «Наука». 1968.
4. Самодурова З.Г. Школы и образование // Культура Византии вторая половина VII–XII веках. Отв.ред. З.В.Удальцова. – М., 1989.
5. Самодурова З.Г. Социальной состав учащихся Византии VII– XII веках. // Византийский временник. Т.51. – М., 1990.
6. История Византии. В трех томах. Том 2. Отв. ред. С.Д.Сказкин. – М., 1967.